

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

«TARIX O'QITISH METODIKASI» kafedrası

**“O'RTA OSIYO XALQLARI HAYOTIDA IX – XII ASRLARDA
YUZ BERGAN UYG'ONISH (RENESSANS) DAVRI.
AJDODLARIMIZNING JAHON SIVILIZATSIYASIGA
QO'SHGAN HISSASI” mavzusida**

M A ‘ R U Z A M A T N I

Tuzuvchi: D.Murtazayev

Navoiy – 2016

MAVZU: “O’RTA OSIYO XALQLARI HAYOTIDA IX – XII ASRLARDA YUZ BERGAN O’YG’ONISH (RENESSANS) DAVRI. AJDODLARIMIZNING JAHON SIVILIZATSIYASIGA QO’SHGAN HISSASI”

REJA:

1. O’rta Osiyoda moddiy va ma’naviy madaniyat yuksalishi (renessans)ni ta’min etgan tarixiy shart-sharoitlar.
2. Ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy va madaniy merosning jahon fani va madaniyatida tutgan urni.
3. IX-XII asrlarda islom dini va so’fiylik.
4. IX-XII asrlarda me’morchilik va san’at.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Renessans, buyuk allomalar, Zij, rioziyot, xattotlik, Farobiy, Ibn Sino, Avitsena, tavsir, tasavvuf, tarkidunyochilik. “Bayt ul-hikma”, Beruniy, Firdavsiy, Rudakiy, Imom al-Buxoriy, Ahmad YUgnakiy, Mahmud Koshg’ariy, Zamaxshariy, Ahmad YAssaviy, Najmiddin Kubro, naqqoshlik, me’morchilik.

1.O’RTA OSIYODA MODDIY VA MA’NAVIY MADANIYAT YUKSALISHI (RENESSANS)NI TA’MIN ETGAN TARIXIY SHART-SHAROITLAR.

Fanda «Uyg’onish davri» deb nomlangan davr G’arbiy va Markaziy yevropadagi mamlakatlarda XIV–XVI asrlardagi rivojlanishning o’ziga xos xususiyatlarini idodalash uchun ishlatilgan. Birinchi marta «uyg’onish» atamasini XVI asr italyan rassomi va tarixchisi J.Vazari o’z asarlarida qo’llaydi. Lekin bu atama XIV – XVI asr ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanish mohiyatini ochib bermasdan, ko’proq antik davr merosini, ya’ni, antik madaniyatga o’xshash madaniyatning qaytadan «tirilishi», «uyg’onishi» va «jonlanishi» ma’nosida ishlatila boshlandi. Keyinchalik bu atama fanda keng qo’llanildi. SHu ma’noda ko’pchilik tadqiqotchilar IX – XII asrlar O’rta Osiyo xalqlari tarixida madaniyatning rivojlanishiga xos xususiyatlarini ham «uyg’onish» davri deb atalishi yuqorida qayd qilinganidek, shartlidir deb hisoblaydilar.

Haqiqatda XV–XVII asrlarda yevropa mamlakatlarida birin–ketin madaniy yuksalish ko’zga tashlanadi. Bu madaniy yuksalish, birinchi navbatda, ijtimoiy–iqtisodiy o’zgarishlar bilan, jamiyat hayotida shaharlarning, shahar madaniyatining hunarmandchilik ishlab chiqarishining rivoj topishi bilan uzviy bog’liq edi. Renessans madaniyati birinchi bo’lib Italiyada boshlangan. Ma’lumki, Italiya o’sha davrda O’rta yer dengizda, temir va havo yo’llari bo’lmagan bir davrda, suv yo’li orqali savdo-sotiqni rivojlantirish, boshqa mamlakatlar bilan turli iqtisodiy – madaniy aloqalarni avj oldirishda markaziy o’rinlardan birini egallar edi.

Italiya suv yo’li orqali bevosita rivoj topgan SHarq davlatlari, xususan, arab davlatlari bilan yaqindan aloqada bo’lishga intildi. IX - XII asrlarda YAqin va O’rta SHarq xalqlari, musulmon SHarqi madaniyatning yuqori cho’qqiga ko’tarilgani tarixdan ma’lum. Italiyaning bu davlatlar bilan iqtisodiy–madaniy

aloqalari yevropada Renessans madaniyatining vujudga kelishida muhim rol o'ynagan.

Italiyaning SHarqiy qo'shnisi bo'lgan Ispaniyada esa musulmon madaniyatini bevosita rivoj ettirgan arab davlati – Qordova xalifaligi deyarli XV asrlarga qadar davom etdi. Bularning barchasi Italiyada boshlangan Renessans, Uyg'onish madaniyati shakllanishida IX-XII asrlarda YAqin va O'rta SHarq Uyg'onish davri madaniyati, fani bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. XII-XV asrlarda Italiyada Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Farobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd kabi mashhur SHarq olimlarining asarlari lotin tiliga tarjima etildi, arab ilmiy yutuqlarini o'rganishga intilish kuchaydi. Bu asarlar yevropaga keng tarqaldi va Renessans madaniyatining muhim qismiga aylandi.

Ma'lumki, VIII asr oxiri va IX asr o'rtalariga kelib, arab xalifasi SHarqda eng rivojlangan imperiyaga aylandi. Xalifalar Mansur, Xorun ar – Rashid, Ma'mun davrlarida xalifalikning markaziy shaharlari, xususan, Bog'dod iqtisodiy va madaniy jihatdan eng rivojlangan shaharga aylandi. Madaniyat, ilmfan taraqqiy etdi. Bu yerda turli ilmiy, diniy, muzokaralar avj oldi, turli mamlakatlardan kelgan ilm vakillari tomonidan keng ilmiy muhokamalar uyushtiriladigan bo'ldi, ilmgohlar vujudga keldi, kitob ko'chirish, turli tillardan arab tiliga ilmiy kitoblarni o'girish avj oldi, maxsus tarjimonlar maktabi vujudga keldi, asar yozishga qiziqish kuchaydi.

Bu davrda birinchi akademiya – «Donishmandlik uyi» tashkil topdi va bu yerda turli ilmlarning rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratildi, arab xalifasi Ma'mun uning rivojiga maxsus mablag' ajratib turdi. Akademiya – «Donishmandlik uyi»da xalifalikning turli o'lkalaridan kelgan arab, yahudiy, fors, turk, hind, yunon olimlari birgalikda ish olib bordilar. Uning faoliyatida O'rta Osiyodan borgan olimlar ham muhim rol o'ynadi.

Bu davr madaniyati adabiyotlarda YAqin-SHarqda Uyg'onish davri madaniyati sifatida talqin etiladi. Haqiqatda ham bu davrdagi YAqin SHarqda arab tilidagi madaniyat o'z mazmuni, yo'nalishi, yutuqlari bilan Uyg'onish davri madaniy yuksalishini o'zida ifoda etdi. Uyg'onish davri madaniyati boshqa o'lkalardagi so'nggi madaniy yuksalishga katta ta'sir ko'rsatdi.

Ma'lumki, VIII asrlarda O'rta Osiyo yangi vujudga kelgan arab xalifaligi tomonidan istilo qilindi. Keskin kurashlar, qarshiliklarga qaramay yerli xalq bosqinchilarga qaram bo'lib qoldi. Buyuk olim Beruniy qayd qilishicha, bosqinchilar yerli xalqlarga ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan katta zarar keltirdi – yerli hokimiyat tugatildi, shaharlar, qadimgi madaniyat, mavjud yozuvlar yo'q qilindi, kitoblar yondirilib yuborildi, arxitektura, san'at namunalari barbod bo'ldi. Ilm - ma'naviyat fidoyilari qurbon etildi va hokazo. Xalq xalifalikka, dinga qaram qilindi. Ma'naviy norozilik kuchaya bordi, xalq mustaqillikni tiklash uchun kurashga qo'zg'aldi. VIII – IX asrlarda Abu Muslim, SHariq ibn SHayx, Sumbat, Muqanna boshchiligidagi xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi. Ular ozodlik uchun kurashdilar.

Xalqning ana shu kurashi natijasida Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar va Xorazmshohlar davlatlari vujudga keldi, ular uzoq umr ko'rmay yo'q bo'lib ketgan bo'lsa-da, har qalay YAqin va O'rta SHarqda yangi

shakllangan musulmon o'lkalari o'rtasida iqtisodiy–madaniy aloqalar avj oldi. Madaniyat namunalari bilan almashuv, o'zaro ma'naviy ta'sir kuchaydi. Qadimgi hind, eron, arab, yunon madaniy boyliklari qorishib, adabiyotlarda «musulmon madaniyati» deb nom olgan yangi madaniy qatlam vujudga keldi.

Qadimgi madaniyat a'analariga nihoyatda boy bo'lgan O'rta Osiyoda mustaqillikka erishgan xalq bu davr ichida o'z madaniyatini yuksaklikka ko'tara oldi. SHaharlar, shahar madaniyatining tez rivoji hamda madaniy aloqalarning kuchayishi samarasi bo'lgan Uyg'onish, Renessans shu davrda boshlandi. O'rta Osiyo ilm–fan, ma'naviyat, tarixda misli ko'rilmagan namunalar yaratdi.

Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Firdavsiy, Rudakiy, Imom al-Buxoriy, Ahmad YUgnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Zamaxshariy kabilar shu davr madaniy yuksalishining cho'qqilaridir. Hattoki, arab xalifasi Ma'mun O'rta Osiyo olimlarini xalifalikning markaziga olib ketgani va ular Bog'dod akademiasining ko'rki bo'lib, ilm uchun xizmat qilganliklari tarixdan ma'lum. Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oni, Javhariy, Ibn Mansur Marvarudiy kabi olimlar shular jumlasidan.

O'rta Osiyoning buyuk o'g'lonlari nomi dunyo madaniyati sahifasida oltin satrlar bilan yozib qoldirilgan. Sotsial utopiya shu davrda shakllandi. Forobiy asarlaridagi yetuk, yuksak jamoa va komil inson haqidagi fikr–xayollar shu davr mahsulidir. O'rta Osiyoda bu davrda uch tilda: arab, fors, turkiy tillarda ijod etildi, tafakkur mevalari yozuvlarga muhrlanib, SHarqning turli burchaklariga yetib bordi.

Bu davr madaniyati o'zining kuchli gumanistik ruhi, insonparvarlik nafasi, odamlarni o'zaro do'stlikka chaqirish, aqlni e'zozlashi bilan umuminsoniy qadriyatlarni yuksaklikka ko'tardi. O'rta Osiyo madaniyati tarixida Uyg'onish, birinchi navbatda, qaramlikdan qutulish, mustaqil tafakkur, mustaqil ijod, mustaqil ma'naviylik – mustaqillikning samarasi bo'ldi. O'rta Osiyoda IX - XII asrlarda hukm surgan somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar va xorazmshohlar davlatlari xalqaro maydonda o'z mavqei va tutgan o'rni jihatidan katta e'tibor va nufuzga ega bo'ldilar. Ahmad Nasr, Ismoil Somoniy, Alptakin, Mahmud G'aznaviy, To'g'rulbek, Sulton Sanjar, Otsiz, Takash singari tadbirkor va uzoqni ko'ra oladigan davlat arboblari davrida O'rta Osiyoda hayotning barcha jabhalarida yuksalishga erishildi, davlat hokimiyati mustahkamlandi, nisbatan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik vujudga keldi.

Tarixchi Abu Mansur as–Saolobiyning somoniylar Buxorosiga bergan ma'lumotlari butun O'rta Osiyo davlatlarining IX-XII asrlardagi ahvoliga tegishlidir: «shon–shuhrat makoni, saltanat ka'basi va zamonasining ilg'or kishilari jamlangan, yer yuzi adiblarining yulduzlari porlagan hamda o'z davrining fozillari yig'ilgan (joy) edi».

O'rta Osiyo hukmdorlari ilm ahli bilan yaqinlashdilar. Mamlakatni boshqarishda ularning bilimi va maslahatlaridan foydalandilar. Hukmdorlarning aksariyati bu davrda o'z saroylarida olim, shoir va usta san'atkorlar, turli sohalar bo'yicha qimmatbaho kitoblarni to'plashga odatlandilar. Saroyga jalb etilgan olim va shoirlar, kutubxonalaridagi nodir qo'lyozma asarlar bilan mag'rurlandilar.

Damashq, Qohira, Bog'dod, Kufa, Basra va boshqa shular singari katta shaharlarda O'rta Osiyodan borib fan, madaniyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan avlod–ajdodlarimiz bu davrga kelib ko'paya bordi. Bog'dod shahri SHarqning ilm–fan markazi sifatida olamga tanildi, chunki IX asrda bu yerda «Bayt ul-hikma» («Donishmandlar uyi») SHarqning fanlar akademiyasi tashkil etildi. Bunga monand holda X asr oxirlarida Xorazmda ham xalifa Ma'mun davrida «Ma'mun akademiyasi» (Xorazm akademiyasi) tashkil bo'ldi. Bu ikki ilm o'chog'ida SHarqning mashhur va taniqli olimu–allomalari tahsil ko'rganlar. Ular orasida Ahmad Farg'oniy, al–Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa buyuk allomalarning nomlari bor.

Xulosa shuki, arab istilosidan so'ng IX – XII asrlarda mahalliy hukmdorlar boshchiligida vujudga kelgan markazlashgan davlatlar davrida mamlakatda vujudga kelgan ijtimoiy–iqtisodiy, ma'naviy–madaniy qulay vaziyat shunday muhit yaratdiki, natijada, bu mintaqadan o'z qobiliyatlari, yorqin va betakror ijodlari, ulkan madaniy–ma'rifiy durdonalari bilan jahon madaniyati sivilizasiyasi xazinasiga bebaho hissa qo'shgan ajoyib allomalar, fan va madaniyat sohiblari, olimu–donishmandlar, mumtoz adabiyot daholari kamolatga yetdilar. Bularning hammasi bizning milliy iftixorimiz, g'ururimiz va faxrimizdir.

2. AJDODLARIMIZ QOLDIRGAN ILMIY VA MADANIY MEROSNING JAHON FANI VA MADANIYATIDA TUTGAN O'RNI.

XII asr o'rtalarigacha bo'lgan besh asrlik davr vatanimiz xalqlari ma'naviy–madaniy hayotida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davrda madaniyat, uning deyarli barcha sohalari yuksak darajada rivoj topdi va O'rta Osiyoning dunyo madaniyati tarixiga qo'shgan hissasini belgilab berdi. Movarounnahr, Xuroson xalqlari qadimiy madaniy an'analarga boy va ma'naviy mavqe jihatidan yuqori edi. SHu sababli O'rta Osiyo arab xalifaligiga, musulmon dunyosiga kirgandan so'ng IX – XII asrlar davomida barcha musulmon o'lkalari madaniyati rivojida yetakchi o'rinlardan birini egalladi.

Islom dini, adabiyot, tabiiy fanlar, tarixnavistlik, san'at, falsafa, huquqshunoslik, ijtimoiy tafakkur kabi madaniyatning barcha sohasida ham bu davrda buyuk siymolar, mutafakkir olimlar, zamonasining ilg'or kishilari yetishib chiqdilar. O'rta Osiyoning Buxoro, Marv, Samarqand, Termiz, Urganch, Xo'jand, Aksikent, Marg'ilon, Binkent, Kesh (SHahrisabz), Nasaf (Qarshi) kabi shaharlari o'z davrining taraqqiy etgan shaharlari va savdo markazlari sifatida ma'lum bo'ldi.

IX – XII asrlarda Markaziy Osiyoda fan va madaniyat bobida shu qadar ajoyib fan kashfiyotlari va tadqiqotlari yaratildiki, bu o'tmish ajdodlarimizning jahon madaniyati xazinasiga qo'shgan bebaho hissasigina bo'lib qolmasdan, ularning aql-zakovatining nihoyatda yuksakligidan ham dalolat beradi.

Bu haqda M. Xayrullayevning «O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati» («Fan», 1992) va F. Sulaymonovanning «SHarq va G'arb» («Fan», 1991) asarlarida, shuningdek, vatandosh, mashhur mutafakkir va donishmandlarga bag'ishlangan «Ma'naviyat yulduzlari» («Meros», 1999)

to'plami va qator boshqa risolalar hamda maqolalarda boy ma'lumotlar beriladi. YUqoridagi asarlarda 200 ga yaqin donishmand va mutafakkirlar nomlari ko'rsatilgan. Ularning ijodini o'rganish biz uchun juda katta ma'naviy merosdir.

Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, o'sha davrdagi donishmandlarning ko'pchiligi qomusiy olim bo'lganlar, ular bir vaqtning o'zida aniq va gumanitar fanlarning turli sohalari bo'yicha yuqori darajadagi bilimni egallaganlar bilim sohasida o'zaro aloqalar o'rnatish va munosabatlarni aniqlash namunalarini ko'rsata bilganlar.

IX-XII asrlardagi ilmlarning hajmi, miqyosi va kengligini ayrim allomalar asarlarida qayd etilgan ilmlar tasnifidan bilish mumkin. Jumladan, X asrda ijod qilgan Abu Abdulloh al-Xorazmiy «Mafotih al-ulum» asarida ilmlar tasnifini batafsil yoritadi. Undan oldin Farobiyning «Ikso al-ulum» risolasi esa barcha ilmlarni 5 ta katta bo'limga ajratadi. Til haqidagi ilm o'z ichiga 7 qismni oladi, so'ng tabiiy va ilohiy fanlar yoki riyoziyot va shaharni boshqarish haqidagi ilmlar. Al-Xorazmiyning «Mafotik al-ulum» kitobida barcha ilmlar an'anaviy ilmlar va gumanitar ilmlarga hamda noan'anaviy, noarab ilmlarga bo'linadi. Birinchisi fiqh, kalom, grammatika, ish yuritish, she'riyat hamda tarix ilmini, ikkinchisi noarab ilmlar – falsafa, mantiq, tibbiyot, arifmetika, geometriya, falakiyot, musiqa, mexanika, kimyo singari fanlarni o'z ichiga oladi. Umuman, barcha ilmlar arablarda ilgaridan ma'lum bo'lgan, shariat o'z ichiga olgan ilmlar hamda arablarda ma'lum bo'lmagan, shariatga aloqasiz, boshqa xalqlardan kirib kelgan ilmlarga ajratish odat edi. Arablarda bo'lmagan ilmlar asosan qadimgi yunonlarda keng o'rganilgan ilmlardan tashkil topgan.

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari ilmu fanning turli sohalarida dunyo madaniyatiga unutilmas hissa qo'shdilar. Ayniqsa, Xorazmiy, Farobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi olimlarning xizmati beqiyosdir. Ular tabiatshunoslik va gumanitar ilmlar sohasida ulkan ishlar bajarganlar.

Muhammad ibn Muso al Xorazmiy (780-850) buyuk matematik, astronom va tarixchi bo'lgan. Xalifalik markazi Bog'doddagi ilmiy markaz «Baytul hikma» rahnamosi edi. «Algebra» va «Algoritm» tushunchalarining paydo bo'lishi Xorazmiy faoliyati bilan bog'liq. «Algoritm» Xorazmiy nomining lotincha ifodasi, «Algebra» so'zi esa uning matematikaga oid «Aljabr va al-muqobala» asarining birinchi so'zi lotincha talaffuzidan olingan. Xorazmiyning 12 dan ortiq risolalari bo'lgan, uning «Arifmetikaga doir risola»sida hind raqamlari asosida hozirgi davrda insoniyat keng foydalanayotgan o'nlik pozision hisoblash sistemasini tuzgan. Xorazmiyning «Ziji»da yulduzlar jadvali tuzilgan. Uning mashhur asari «Er yuzining xaritasi» musulmon sharqida geografiya ilmini boshlab bergan. U o'rta asr SHarqida birinchi bo'lib, «Kitob at-tarix» asarini yozgan. Bulardan tashqari, u astronomiyaga oid, kalendar tuzish, vaqtni o'lchash va soat haqida risolalar yozgan.

Ahmad al-Farg'oniy (taxminan 798-850 y.y.) Farg'ona vodiysining Quva shahrida tavallud topib, dastlabki bilimni ona yurtida, so'ng Bog'dod, Damashq va Qohirada katta tadqiqotlar olib bordi. U Muso al-Xorazmiy rahbarligidagi «Baytul hikma»da faoliyat ko'rsatdi, arab atamashunosligining paydo bo'lishi va ilmiy taraqqiyotiga hissa qo'shdi, Bog'dod va Damashqdagi

rasadxonalar qurilishiga rahnomalik qildi. Bog'doddagi rasadxona qoshida falakiyotshunoslik maktabini tashkillashtirdi va unda boshqa olimlar bilan birgalikda Ptolomey «YUlduzlar jadvali»dagi ma'lumotlarni tekshirib chiqdi.

Ahmad Farg'oniy 6 ta kitobi bilan dunyoga mashhur: «Falakiyot ilmining usullari haqida kitob»; «Al-Farg'oniy jadvallari»; «Usturlob bilan amal qilish haqidagi kitob»; «Oy yerning ustida va ostida bo'lganida vaqtni aniqlash risolasi»; «Astronomiya negizlari». Al - Farg'oniy yerning shar shaklida ekanligini ochdi, Nil daryosi suvini o'lchaydigan asbob yasadi. Falakiyotga oid asarlari yevropada Kopernikgacha bo'lgan falakiyot ilmidan asosiy qo'llanma bo'lib qoldi.

Al Farg'oniy proyeksiyalar tuzish nazariyasini yaratdi. Undan ming yil keyin buyuk matematik Eyler geografik xaritalar tuzishga bag'ishlangan asarida undan foydalandi. Undan tashqari, kompleks o'zgaruvchi miqdorlar tekisligi, noyevklid geometriyalar, kosmik geodeziya va kosmografiyalarning mazmunida ham Al Farg'oniy fikrlari yotadi.

Abu Nasr Farobiy (873-950) Toshkentning shimolidagi Foroba-Utrorda tug'ilib, dastlabki ma'lumotni SHosh (Toshkent), Buxoro va Samarqand shaharlarida oladi. So'ng Bog'dodda uzoq yashab, zamonasining buyuk qomusiy olimi darajasiga yetadi. U turli ilmlarga doir 160 dan ortiq risolalar yozgan. U Arastu merosini chuqur o'rganadi va uni SHarqda rivojlantirgani uchun «SHarq Arastusi» degan nomga sazovor bo'lgan.

Uning risolalari riyoziyot, falakiyot, tibbiyot, axloqshunoslik, musiqashunoslik, davlatni boshqarish, ayniqsa, falsafa va mantiq ilmi masalalarini o'z ichiga oladi.

Farobiyning Aristotelning barcha falsafiy asarlariga yozgan sharhlari «Masalalar bulog'i», «Ilmlar tavsifi», «Hikmat xulosasi», «Falsafaga oid maqola», «Lug'atlar haqida kitob» degan nomlar bilan bitilgan. Farobiy fikricha, olam moddiy, abadiy, yo'q bo'lmaydi va cheksiz. Inson mavjudot rivojining yakuni, rivojining aql idroki orqali dunyoni o'rganadi. U o'zining «Grajdanlik siyosati», «Fozil shahar aholisi», «Baxt-saodatga erishuv haqida» asarlarida inson uchun adolat, o'zaro hamjihatlik, farovonlik, erkin mehnat qiluvchi yetuk-fozil jamoa haqidagi ta'limotni olg'a surdi. Farobiy musulmon sharqida falsafiy va ijtimoiy-axloqiy ta'limotlarga, dunyoviy musiqashunoslikka asos soldi, mantiqshunoslik, shaharni boshqarish sohalarida ham rivojlanish yo'llarini belgilab berdi. Uning g'oyalari F.Bekon, Spinoza kabi faylasuflar dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Abu Ali Ibn Sino (960-1037) Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'idagi turkiy oilada tavallud topgan. U tinimsiz ilmiy izlanish natijasida falsafa, mantiq, biologiya, geologiya, mineralogiya, fizika, matematika, tibbiyot, falakiyot va fanning boshqa sohalarida 450 dan ortiq asarlar yozgan. SHundan 80 tasi falsafa, ilohiyat va tasavvufga, 43 tasi tabobatga, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi ruhshunoslikka, 23 tasi tibbiyot ilmiga, 7 tasi falakiyotga, 1 tasi musiqaga, 2 tasi kimyoga, 9 tasi odob ilmiga, 4 tasi adabiyotga, 8 tasi boshqa fanlarga tegishli bo'lgan.

yevropada «Avitsenna» nomi bilan mashhur bo'lgan Ibn Sino asarlari arab va fors-tojik tillarida yozilgan. Uning «Tib qonunlari kitobi» to XVII asrning oxirlarigacha yevropaning barcha tibbiy o'quv yurtlarida asosiy o'quv qo'llanma sifatida foydalanildi. Olimning falsafaga oid «Kitob ash-shifo» («Ruhni davolash kitobi»)da mantiq, tabiiy fanlar, riyoziyot va ilohiyot bo'yicha falsafiy g'oyalar tahlili berilgan. «Ishoralar va tanbehlar» asarida falsafaning asosiy masalalari qisqacha bayon etiladi. U «Donishnoma» asarida o'zigacha bo'lgan tabiiy fanlar va falsafa yutuqlaridan foydalanib, SHarqning nazariy bilimlarini umumlashtirdi.

Ibn Sino iste'dodli shoir va adib ham edi. Uning badiiy faoliyati «Qush risolasi», «Salomon va Ibsol», «YUsuf qissasi», «Uyg'oq o'g'li Tirik» asarlarida o'z aksini topgan.

Xorazmda tug'ilgan, lekin feodal urushlari tufayli Markaziy Osiyo va Eronning qator shaharlarida qochib yurishga majbur bo'lgan, so'ng Urganchda, Jurjonda yashagan, G'aznada uzoq davr xizmatda bo'lgan, Hindistonga safar qilgan Abu Rayxon Beruniy (973-1048) tibbiyot, riyoziyot, astronomiya, astrologiya, geografiya, geodeziya, meterologiya, etnografiya, tarix, falsafa va filologiya kabi fanlarga oid 150 ga yaqin asarlar yozgan.

Beruniyning «Hindiston», «Geodeziya», «Farmokologiya», «Minerologiya», «Mas'ud qonuni», «O'tmish avlodlar xotiralari» kabi asarlari gumanitar bilimlar, arab tili, she'riyati, turli xalqlar etnografiyasi, tarixi, urf-odatlar, taqvim, axloqshunoslik, falsafa muammolari borasida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Bu davrda qomusiy olimlar bilan birga ma'lum ilmlar sohasi bo'yicha mashhur bo'lgan kishilar qatoriga Hakim Termiziy, Ismoil Jurjoniy, CHag'miniy, Zamaxshariy, Narshaxiy, Balxiy, Masixiy, Ibn Iroq, Fahridin Roziy, Muhammad Buxoriy, Abdurahmon Marvoziy kabilarni kiritish mumkin.

Somoniylar davrining eng mashhur tarixchilaridan biri Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshahiy edi. Uning tarjimai holi to'g'risida manbalarda ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda Narshahiy 899 yilda tavallud qilgan va 959 yilda vafot etgan. U Buxoro yaqinidagi Narshah (hozirgi Vobkent) qishlog'ida tug'ilgan. Narshahiyning ilmiy asarlari to'g'risida ham ma'lumotlar juda kamdir. Uning faqat «Tarixi Buxoro» (Buxoro tarixi) asari bizgacha etib kelgan. Bu asar 943-944 yillarda arab tilida yozilgan bo'lib, uning asl nusxasi va nomi hozircha noma'lum. Bizga etib kelgan «Tarixi Buxoro» asari 1128 yilda Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al Quboviy (Quva shahridan) tomonidan arab tilidan fors tiliga ag'darilgan. Abu Nasr Quboviy bu asarni fors tiliga do'stlarining iltimosiga binoan tarjima qilgan.

Bu asar o'zining ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan va hozircha Somoniylar davri tarixi bo'yicha eng noyob, qimmatli manba hisoblanadi. Asarda Somoniylar davlatining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy hayotiga bog'liq ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari bu asarda Buxoro shahri va atrofida joylashgan qishloqlar tarixi bo'yicha ham qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Movarounnahr va Xuroson aholisining arab bosqinchilariga qarshi Muqanna boshchiligidagi qo'zg'olon bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar ham bu asarda

ma'lim darajada o'z ifodasini topgan. Asarning tahlili shuni ko'rsatadiki, Narshahiy saroy tarixchilaridan bo'lgan. SHuning uchun u hukmron tabaqa siyosatini yoqlab, xalqning hokimiyatga qarshi chiqishlarini qoralagan.

Ismoil Jurjoniy Ibn Sinodan so'ng 12 jildlik «Xorazmshoxlar xazinasi» asarini, 2 jildlik «Tibbiyot bo'yicha xotiralar» kitobini yozib qoldirgan. CHag'miniy riyoziyot va falakiyotga oid masalalarni «Astronomiyadan qisqacha tanlangan bayonlar» asarida yoritgan. Xivada yashagan Xaraqiy xorazmshoxlar saroyida munajjimlik qilib, falakiyot va geografiyaga doir qimmatli asarlar yozgan.

Bu davrda tarixshunoslik, filologiya, odob, axloqshunoslik kabi ilmlar ham rivojlandi. Markaziy Osiyoda badiiy adabiyot arab, fors-tojik va turkiy tillarda yaratildi. Nishopurda tug'ilib, Buxoroda ijod etgan Abu Mansur as-Saolibiy (961-1038) «Asr ahli fozillari haqida zamona durdonasi» asarida Movarounnahrda yashab arab tilida ijod etgan 124 ta shoir haqida qisqa ma'lumotlar va she'rlaridan namunalar keltiradi. Jumladan, Muhammad al-Murodiy buxorolik yetuk shoir, arab va fors-tojik tillarida qasidalar, davlat idoralarida ishlovchilar to'g'risida hajvlar yozgan; Muhummad Musadiy samoniylar davrida arab va fors-tojik tillarida qasidalar, g'azallar va hajvlar yozgan; Abulfazl al-Morvoziy Marvlik shoir, maqolalar va xalq adabiyotidan unumli foydalangan; Abu Muhammad al-Matroniy (shoshlik), Abu Ahmad al-Kotib (buxorolik), Ali al-Marvarudiy (marvarudlik), Al-Xarroniy (buxorolik), Abu Bakr al-Xorazmiy, Rashid aa-Ain Vattot, Abu Abdulloh al Xorazmiy, Haydar al-Xo'jandiy va boshqalar ilm-fan, axloq-odob, ta'lim-tarbiya, do'stlik haqida badiiy asarlar bitgan va o'z davrining eng iste'dodli ijodkorlari sifatida tanilgan.

Bu davrda fors-tojik she'riyatini, badiiy adabiyotini Rudakiy, Firdavsiy, Daqiqiy, Abulhasan Termiziy, Nosir Xisrav, Umar Xayyom kabilar dunyoga mashhur qildilar.

Somoniylar davrining eng ko'zga ko'ringan shoirlaridan, ma'rifatparvarlaridan biri Abdullo Rudakiy edi. U IX asrning oxirlarida Panjikent yaqinidagi Panjrud qishlog'ida kambag'al dehqon oilasida tug'ilgan. Uning yoshlik yillari to'g'risida manbalarda aytarli ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Rudakiy o'zining yoqimli ovozi, poyetik iste'dodi va chang musiqa asbobini yaxshi chalish bilan tezda Movarounnahrda dong taratdi va uni somoniylar amiri Nasr ibn Ahmad saroyiga taklif etdi. Uning butun hayoti saroyda o'tdi. Amir g'azabiga uchragan Rudakiy ko'r qilindi va umrining so'nggi ikki yilini nochorlikda o'tkazdi. Manbalarda yozilishicha, Rudakiy 941 yili o'z qishlog'ida vafot etdi. Abufazl Balamiyning yozishicha, she'rlar bitishda Rudakiy o'z zamondoshlari orasida birinchi o'rinda turgan. Na arab, na fors tilida she'r bitgan shoirlarning birortasi, unga teng kelolmagan. U ko'plab shoirlarga ustozlik qilgan. Bu uning obro'-e'tiborini yanada ko'tarilishiga sabab bo'lgan. Bizgacha uning faqat 2000 ga yaqin misralari qolgan. Uning she'rlarida muhabbat, oily himmatlik, sahiylik, mardlik, go'zal tabiat kuylangan. Rudakiyning she'rlarida uning dunyoqarashlari o'z ifodasini topgan. Rudakiyning fikricha, dunyodagi hamma narsalarni xudo yaratgan. SHu bilan

birga u moddiy dunyo borligini inkor etmagan. U dunyoning doimiy harakatda, o'zgarishda va rivojlanishda ekanligini tushungan.

O'z zamonasining eng mashhur shoirlaridan biri Abumansur Muhammad ibn Ahmad Daqiqiy bo'lgan. U o'z ijodini CHag'oniya hokimining saroyida boshlagan va keyinchalik Buxoroga amir saroyiga taklif etilgan. Bu davrda shoirlar orasida turli rivoyatlar va afsonalar to'plash keng tarqalgan. Bu bilan ular keng xalq ommasini o'zining tarixiy an'analari bilan tanishtirish va bu orqali mustahkam mustaqil davlat tuzishga, kurashishga chaqirganlar. Bu g'oya Somoniy mirlarining taklifi bilan ko'trilgan bo'lish kerak. SHuning uchun ko'tarilgan bo'lishi kerak. SHuning uchun ham tasodif bo'lmasa keraki, amir Nux Daqiqiyga "Abumansur shoxnomasini" she'riy uslubga ag'darishga buyurgan. Lekin Daqiqiy o'z ishini oiriga enkazishga muyassar bo'lmadi. U 977 yili bazm paytida o'z quli tomonidan o'ldirildi. Keyinchalik Abdulqosim Firdavsiy asarning Daqiqiy tomonidan tayorlagan qismini o'zining "SHohnomasiga" qo'shgan.

Bu davrning eng buyuk shoirlaridan yana biri Abdulqosim Firdavsiy edi. Firdavsiy Xurosoning Tus shahri yaqinidagi Bans degan qishloqda boy zodagon oilasida tug'lgan. Uning tug'lgan yili aniq ma'lum emas. Ayrim manbalarga qaraganda, Firdavsiy 934 – 941 yillarda o'rtasida tug'lgan.

Abdulqosim Firdavsiy fors tilidan tashqari arab tilini ham juda yaxshi bilgan. U 35 yoshida Buxoroga kelgan va Abumansurning "SHohnomasiga" siga yangi ma'lumotlar to'plagan va o'zining "SHohnoma" asarini she'riy uslubda bayon qilishga kirishgan. Abdulqosim Firdavsiy bu asarni yozishda sug'diylar orasida keng tarqalgan paxlavon Rustam, xoraxmiylarning Siyovush va baqtriyaliklarning Isfandiyor to'g'risidagi afsonalaridan foydalangan. Asarning asosida yaxshilik bilan yomonlik to'g'risidagi kurash g'oyasi yotadi. Pahlavon Rustam obrazi orqali Firdavsiy mahalliy aholini bosqinchilarga qarshi qahramonona kurashini tasvirlaydi. Asarda makedoniyalik Iskandar yurishidan to sasoniylar saltanatining arab bosqinchilari tomonidan qulatilishigacha bo'lgan katta tarixiy davr yoritilgan.

XI-XII asrlarga kelib, arab va fors tillaridagi badiiy asrlar bilan birga turkiy tilda ham yirik risolalar, dostonlar, she'rlar yaratildi. Bunda mashhur tilshunos olim Maxmud Koshg'ariyning 1069 yilda yozgan «Devonu lug'otit turk» («Turkiy so'zlar lug'ati») hamda bolosog'unlik YUsuf Xos Hojibning 1070 yilda yaratgan «Kutadg'u bilig» («Saodatga boshlovchi bilim») va nihoyat XI asr oxirlarida adib Ahmad YUgnakiy qalamiga mansub «Hibatul-haqoyiq» («Haqiqatlar sovg'asi») asarlari tahsinga sazovordir. Mahmud Qoshg'ariy asari bizga qadim zamonlardagi turkiy xalqlarning tili, tarixi, turmush tarzi va badiiy ijodi to'g'risida keng ma'lumotlar beradi.

YUsuf Xos Hojib asarining qimmat shundaki, u eski turkiy tilda bitilgan shox asardir. Unda muallif axloqiy tarbiyaviy fikrlarni jozibali, badiiy shaklda ifoda etadi, ezgulik, adolatparvarlik va xalqparvarlikdan ta'lim beradi.

3. IX-XII ASRLARDA ISLOM DINI VA SO'FIYLIK.

IX-XII asrlarda islom dini O'rta Osiyo xalqlari davlatchiligi tarixida katta rol o'ynay boshladi. Movarounnahrda bu davr arab xalifaligidan mustaqil bo'lgan davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi davri bo'lgan bo'lsa, islom bu vaqtda SHarqda keng tarqalib jahon dini darajasiga ko'tariladi, musulmon dunyosining mafkurasiga aylanadi. Arab tili davlat tili darajasiga ko'tariladi. Azaldan savodli bo'lgan, madaniyat darajasi yuqori darajaga ko'tarilgan xalq tez orada nafaqat arab tilini, balki islomni ham chuqur o'rganib, arab tili va shariat masalalarida kitoblar yozadigan olimlarni yetishtirib chiqara boshladi.

Xalifalikdan ajralib chiqqan mustaqil davlatlar somoniylar, qoraxoniylar, saljuqiylar va g'aznaviylar, Xorazmshohlar davrida bu mustaqil markazlashgan davlatlarni yanada mustahkamlash uchun islom diniga, uning ta'limotiga, tarixiy ahkomlariga e'tibor bir necha bor kuchaya boshlaydi. SHaharlarda masjidlaru-madrasalar qurilishiga e'tibor berila boshladi. Masalan, manbalarning darak berishicha, Buxoroda dastlabki madrasa Kovushdo'zlar timi yaqinida barpo qilinadi. Hatto qonunshunoslar uchun ham maxsus "Faqihlar madrasasi" degan ixtisoslashtirilgan madrasa qurdirilgan. Bunday bilim maskanlarida Qur'oni karim, Hadis ilmi va shariat asoslari har tomonlama mukammal o'rganilgan.

O'sha davr shaharlari orasida islom dini ta'limotini chuqur targ'ib qilishda Buxoro shahri alohida o'rinni egallaydi. YUqorida qayd qilinganidek, madrasayu, maktablarning borligi bu yerda yetuk ilohiyot fani namoyondalarini yetishib chiqishiga xizmat qiladi. SHuning uchun bo'lsa kerak, Buxoro shu davrdan boshlab "Qubbat-ul-islom"("Islom dinining gumbazi") nomi bilan shuhrat topa boshlaydi.

Sekin-asta markazlashgan davlatning asosiy mafkurasiga aylangan islom dini boshqa diniy qarashlarni siqib chiqara boshlaydi va xalq ommasini itoatda ushlab turish uchun qurol vositasi rolini ham bajara boshlaydi.

Bu davrda islom ta'limotiga bebaho hissa qo'shgan Imom al-Buxoriy va Iso at-Termiziy kabi ko'plab ulamolar yetishib chiqdilar. Ular shu kunga qadar Hadis ilmining eng ko'zga ko'ringan, butun musulmon dunyosi tomonidan tan olingan allomalari darajasiga ko'tarilgan zotlardir.

Imom Buxoriy (809-870-yy.) Buxoroda tug'ilib, shu yerda birinchi bilimlarni oladi. So'ngra bilimini yanada chuqurlashtirish maqsadida Makka, Madina, Bag'dod, Damashq, Kufa, Nishopur kabi shaharlarga boradi. Manbalardan bizga ma'lumki, Imom Buxoriy islom dini masalalariga bag'ishlangan 20 ga yaqin asar yozgan. SHu kitoblar orasida Buxoriyning butun dunyoga mashhur qilgan asari "Al-Jome' as-Sahih" ("Ishonchli to'plam")dir. Bu asar 160 qismdan iborat bo'lib, 3450 bobni o'z ichiga oladi. Buxoriy hadislarini to'plash va bayon etishda uni haqiqiyligiga asosiy e'tibor bergan, uni haqiqatga yaqinligini isbotlovchi dalillarni keltirgan va shu asosda hadislarni tasnif qilgan olimdir. Uning diqqat markazida fanning inson uchun tarbiyaviy ahamiyati, uning ma'naviy yuksalishi, fozilligi, donoligi, yaxshi va yomonni ajrata olishi turadi. Umrining oxirida u o'z Vataniga qaytib keladi va Samarqand yaqinida vafot etadi. Mustaqillik yillarida bu ulug' bobakalonimiz ruhini shod etib, O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan uning vafot etgan joyida

ulkan majmua-bino barpo qilindi. Hozirda bu joy nafaqat mamlakatimiz fuqarolarini, balki butun musulmon dunyosi ahlini ziyoratgoh joyiga aylangan.

Imom at-Termiziy (824-892-yy.) Termizdan uncha uzoq bo'lmagan Bug' qishlog'ida tug'ilgan. U ham Buxoriy singari SHarqning juda ko'p shaharlarida bo'lib, o'z bilimini oshirishga harakat qiladi. At-Termiziy hadislardan tashqari filologiya, tarixga oid asarlar ham yozdi. Uning 10 dan ortiq yozgan asarlari orasida nomini butun musulmon olamiga mashhur qilgan asari "Jome at-Termiziy" yoki "Sunan at-Termiziy"dir. Bu asar islomda ulamolar tomonidan haqiqat deb tan olingan mashhur hadislar to'plamidan biridir. Burxoniddin Marg'inoniy (1197 y. vafot etgan) ning «Hidoya fil-Furuz» («SHariat sohalari bo'yicha qo'llanma»), ya'ni «Hidoya» asari musulmon huquqshunosligi bo'yicha eng yirik va keng tarqalgan tadqiqotdir. U fors, ingliz va rus tillariga o'girilgan. Qur'onga tavsif (sharh) yozish borasida xorazmlik Zamahshariy, Faxriddin Roziy kabilar katta hissa qo'shganlar.

Islom dinining mamlakatda asosiy din sifatida tan olinishi, boshqa dinlarning oyoq-osti qilinishi, bu davrda mehnatkash omma turmush tarzining og'irlashuvi ular orasida ularni yupatishga, ularning ruhini yengil qilishga yordam beruvchi g'oyani qidirishga majbur qila boshladi. Bu g'oya tasavvuf g'oyasi bo'ldi.

Tasavvuf, ya'ni so'fiylik islom dini asosida shakllangan diniy-falsafiy oqim bo'lib, poklangan, zohid, taqvodorlik ma'nosini anglatadi. Uning asosida bu dunyo lazzatlarida voz kechish orqali Oллоhga yetish, uni bilish, u bilan birlashish yo'lini qidirish yotadi. Sufiylik, Qur'on va shariat talablarini albatta so'zsiz bajarish, o'zini Xudoning quli deb bilish kabilar, o'z xohishi bilan poklanib, Oллоhga, ruhiy ma'naviylikka singish orqali erishishga asoslanadi. Tasavvuf ta'limoti asosida inson faoliyati va uning kamoloti yotadi.

Tasavvufda ruhni kamolotga, uning so'nggi maqsadi Oллоhga erishuv yo'llari to'rt bosqichdan iborat: birinchi bosqich-SHARIAT deb ataladi, unda avvalambor, shariatning barcha talablarini bajarish va unga bo'ysunish talab etiladi. Ikkinchi bosqich-TARIQAT deb ataladi. Unda murid o'z shaxsi istaklaridan voz kechib, o'zini pir ixtiyoriga topshirishi kerak. Uchinchi bosqich-ma'rifat bo'lib, unda so'fiylar koinotning birligi Xudoda mujassam bo'lishini, yaxshilik va yomonlikning nisbatini aql bilan emas, qalb orqali anglab olishlari kerak bo'ladi. To'rtinchi bosqich HAQIQATdir. Bunda so'fiy shaxs sifatida tugab, Xudoga-mo'ljallangan haqiqatga yetishishi, Oллоhga singib ketishi va natijada abadiylikka erishuvi zarur. Bu jarayon ma'lum davomli vaqtni talab etgan. Maxsus ruhiy jismoniy harakat, faoliyat, sig'inish, ibodatlar, ohanglar yordamida amalga oshirilgan.

Tasavvufning ijtimoiy asosini shaharlardagi hunarmandlar, mayda savdogarlar tashkil qilgan. IX-X asrlardayoq Iroq va Eronda uning yirik vakillari vujudga keladi. Movaraunnahrda esa tasavvuf ta'limoti X asrdan boshlab yoyila boshladi. Hozirgi O'zbekiston hududida tasavvufning rivojlanishida YUsof Hamadoni ta'limoti muhim rol o'ynaydi. Manbalarda qayd qilinishicha, YUsof Hamadoni 1043-1049-yilda Eronning Hamadon shahrida tug'iladi. Dastlabki bilimlarini Hamadon va Bag'dodda oladi. Imom G'azzoliy kabi buyuk

allomalarni tarbiyalab voyaga yetkazgan shayx Abu Ali Farsadiyga shogirdlikka tushadi. YUsof Hamadoniylarning umrining katta qismini O'rta Osiyoda o'tkazgan. U hunarmandchilik-kosibchilik bilan shug'ullangan. SHuning uchun ham bo'lsa kerak, uning ta'limoti asosan hunarmandlar orasida keng tarqalgan va ularning manfaatlarini ifodalagan. YUsof Hamadoniylarning sufiylik ilmi bo'yicha ko'plab shogirdlar tayyorladi. U Buxoroda maxsus xonaqo qurdirib, o'sha yerda shogirdlarga dars bergan. Hamadoniylarning ta'limotida vatanparvarlik g'oyalari o'z ifodasini topgan. Uni pir deb bilgan shogirdlaridan 213 tasi mashhur shayxlar bo'lib yetishgan ekanlar. Hamadoniylarning ta'limotidan O'rta Osiyoda ikki tasavvuf maktabi-yassaviylik va naqshbandiylik kelib chiqadi.

O'rta Osiyo hududida birinchi vujudga kelgan so'fiylik oqimi YAssaviylikdir. Bu oqimga 1105 yilda YAssa (Turkiston) shahrida tug'ilgan Ahmad YAssaviy asos solgan. Ahmad YAssaviy Buxoroda YUsof Hamadoniylarning ta'lim olgach, yana ona shahri Turkistonga qaytib keladi va shogirdlar tarbiyasi masalasi bilan shug'ullanadi. Madrasa va xonaqolar qurdiradi. YAssaviy ta'limotining asoslari turkiy tilda yozilgan "Devoni Hikmat" asarida bayon etilgan. U o'troq va ko'chmanchi turkiy xalqlar orasida o'ufiylik ta'limotini targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etgan.

YAssaviy tariqatining boshqa tariqatlarda bo'lganidek, o'ziga xos qoidalari bor. Ular: 1.Murid hech kimsani o'z shayxidan afzal ko'rmasligi, unga mutlaqo taslimiyat izhor etmog'i lozim. 2.Murid shunchalik zukko va idrokli bo'lishi kerakki, to o'z shayxining barcha ramz va ishoralarini mukammal anglay olsin. 3.SHayxining barcha ahvoli (so'zlari) va a'folari (ishlari) ga murid sodiq bo'lib, unga mutlaqo mute va mo'taqid bo'lmog'i lozim. 4. Murid o'z murshidi (piri) ning barcha topshiriqlarini chaqqonlik bilan sidqidildan bajarib, uni hamisha rozi qilib yurmog'i lozim. 5. Murid o'z so'ziga sodiq, va'dasiga rosih bo'lib, o'z murshidi ko'nglida hech qanday shak-shubha tug'dirmasligi zarur. 6. Murid o'z va'dasiga vafodor va so'zida ustuvor bo'lishi kerak. 7. Murid o'z ixtiyoridagi barcha mol-mulkni, butun bor-u yo'g'ini o'z shayxiga nisor (baxshida) etmoq uchun doimo tayyor bo'lmog'i kerak. 8.Murid o'z shayxining barcha sir-asroridan ogoh bo'lib, uning ifshosini (oshkor etishni) hech vaqt xayoliga keltirmasligi kerak. 9.Murid o'z shayxining barcha takliflarini nazarda tutmog'i, uning mushkulotini oson qilmog'i, pandu nasihatlarini bajo keltirmog'i shart. 10. Murid Olloh visoli uchun o'z shayxi yo'lida butun moli va jonini nisor etmoqqa tayyor turishi, uning do'stiga do'st, dushmaniga dushman bo'lib yashamog'i shart.

Ahmad YAssaviyning fikricha shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma'rifat, ma'rifatsiz haqiqat bo'la olmaydi. Ular doimo bir-birini to'ldiradi. Bu yo'l kamolot yo'li bo'lib, inson hayotining asl mohiyatini tashkil etadi.

YUsof Hamadoniylarning yana bir shogirdi Abduxoliq G'ijduvoniylarning bo'lgan. YAssaviy bilan G'ijduvoniylarning shu darajada iqtidorli shogirdlardan bo'lishganki, keyinchalik ulardan bir "YAssaviya", ikkinchisi "Naqshbandiya" tariqatining asoschilari bo'lib yetishadilar. Xoja Abduxoliqning tarjimai holi, tug'ilgan va vafot etgan sanalari aniq. U 1103 yilda G'ijduvondda tug'ilib, 1179 yilda o'z vatanida vafot etadi. Xoja Abduxoliqqa dastlabki savodni o'z tug'ilgan yurtida

Imom Sadriddin beradi. Keyinchalik o'qishni Buxoroda davom ettirib, yuqorida qayd qilinganidek, YUsof Hamadoniya shogird tushadi. Tarixiy manbalarning xabar berishicha, ustoz va shogirdning bir-birlariga hurmati, mehr-oqibati shu darajada bo'lgan ediki, ular birgalikda SHarqning fan va madaniyat o'choqlaridan bo'lmish Samarqand, Buxoro, Marv, Isfaxon, Balx singari shaharlarga borgan ekanlar va u yerlarda tasavvuf sohasidagi o'z bilimlarini yanada chuqurlashtirgan ekanlar.

Xoja Abduxoliq G'ijduvoniya SHarq falsafa tarixida o'ziga xos o'rin egallaydi. Uning falsafiy dunyoqarashi tasavvufdagi Xojagon (Xojalar) xalqasida shakllandi. Agar bizgacha Ahmad YAssaviyning "Hikmatlar"i meros bo'lib qolgan bo'lsa, Xoja Abduxoliq G'ijduvoniya "Risolayi Sohibiya" "Risolayi SHayxshuyuk Xazrati Abu YUsof Hamadoni" kabi asarlar meros bo'lib qolgan. Ammo bu asarlar hali yaxshi o'rganilmagan va keng xalq ommasi orasida targ'ib qilinmagan. Xoja Abduxoliq G'ijduvoniya ustozidan ko'p narsalarni o'rganar ekan, o'zi ham ko'p hollarda mustaqil fikr yuritib, ba'zi masalalarda o'z yo'lini shakllantirishga harakat qilgan. U zikr aytish usuli bo'yicha "Zikri Xufiya", "Zikri dil" amalini targ'ib qila boshlagan. Xoja Abduxoliqning ustози YUsof Hamadoniya o'sha vaqtda o'z sahobalari bilan "Aloniya" zikr tushish amalini bajargan. Xoja Abduxoliq G'ijduvoniya yuqorida qayd qilinganidek, "Xojagon" (Naqshbandiya) tariqatining asosiy qonun-qoidalarini ishlab chiqqan buyuk allomadir. Uning asarlari, hayoti, qilgan ishlari butun turk olamida alohida o'rin egallab, ma'naviy hayotda o'chmas iz qoldirgan.

Najmiddin Kubro (1145-1221-yy.) - tasavvuf ta'limotining O'rta Osiyodagi yirik vakillaridan biri. So'fiylikdagi Kubraviya oqimining asoschisidir. Xivada tug'ilib, Misr, Tabriz va Hamadonda ilm olgan. Ko'hna Urganchga qaytib, o'z ta'limotini rivojlantirib, shu yerda yangi sufiylik oqimiga asos soladi. U "Favoix al-Jamol va fovotix al-Jalol" ("Jamolining muattarliligi va kamolotning egalari"), "As-usul al-ashara" ("O'nta qonun va qoidalar") nomli qator risola va asarlar yozib, o'z ta'limotini takomillashtirishga erishdi. Kubroviya tariqatining asosini 10 tadan iborat qonun-qoidalar tashkil etadi. Ularga asosan "tavba", "zuxd" ("mol-dunyodan voz kechish"), "tavakkal" ("Olloh yo'lida"), "qanoat", "uzlat", "doimiy zikr", "tavajjuz", "sabr", "muroqaba" ("kamolot topish") va "rizo" (xalqqa yetishish) kabi qoidalar kiradi. Kubroviya tariqati YAssaviya tariqatidan farq qilib, tarki dunyochilik rad etiladi. Unda kamolot yo'lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo noz-ne'matlaridan bahramand bo'lish kerakligi ilgari suriladi. Bu ta'limotda vatanga, xalqqa bo'lgan muhabbat g'oyasi nihoyatda kuchli bo'lib, har qanday og'ir sharoitda ham xalq bilan birga bo'lish, vatan himoyasi uchun kurashish, uning mustaqilligini saqlash zarurligini da'vat qilinadi. O'z g'oyasiga sodiq Najmiddin Kubro vatan himoyasi yo'lida shahid bo'ldi va jasorat namunasini o'z muridlariga ko'rsata oldi.

SHunday qilib, tasavvuf Movarounnahr aholisining ma'naviy hayoti bilan chambarchas bog'langan ta'limot bo'lib, o'rta asrning xalqparvar adib va

mashoixlari uni chuqur bilishga va u orqali ommaga ziyo va ma'rifat tarqatishga intilganlar.

SHarq xalqlari tafakkurini asrlar davomida nurafshon etib ma'naviyatimiz va ma'rifatimizga chuqur ta'sir o'tkazgan tasavvuf(sufizm) ta'limoti VII asr o'rtalarida paydo bo'lgan. Dastlab u zoxidlik (tarkidunyochilik - bu dunyo orzu xavaslaridan voz kechish) ko'rinishida bo'lib Bog'dod, Basra, Kufa, Damashq shaxarlarida keng yoyilgan. Asli tasavvuf so'zi "so'fiy" so'zidan, "so'fiy" so'zi esa arabcha "So'f" so'zidan yasalgan. So'f deb arablar jundan bo'gan matoni aytadilar. Dastlabki davrlarda so'fiylik yolini tutgan kishilar boshqa oddiy kishilardan ajralib turish uchun jundan to'qilgan chakmon yoki po'stin kiyib yurishni odat qilganlar. SHuning uchun ularni jun chakmon kiyib yuruvchilar, yani so'fiylar deb ataganlar.

Tasavvuf-so'fiylik insonni o'rganar ekan, avvalo kishining ko'ngliga, diliga tayanadi, ko'ngilni qalbni tarbiyalashga, kongil kishisini voyaga yetkazishga intiladi. Demak tasavvuf ilmi-inson xaqidagi ilmdir. Biz bu ilmdan 70 yil davomida bexabar edik. O'tmishdagi Xoja Axmad YAssaviy , Xoja Baxovuddin Naqshbandiylar yurtimiz va xalqimizning fayzi kamoli edilar. Istiqlol tufayli shu nur, shu fayz bizga qaytdi. SHuni iftixor bilan qayd etishimiz lozimki tasavvuf talimoti taraqqiyotida Turkiston farzandlarining xizmati beqiyos bo'lgan. Xoja Xakim at-Termiziy, SHayx Abu Mansur al-Motrudiy, Xoja Abduxoliq G'ijduvoni, Xoja Axmad YAssaviy, Sulaymon Boqurg'oni, SHayx Najmuddin Kubro, Baxovuddin Naqshband kabi siymolar ilohiy ma'rifat yo'lining raxnomalari bo'ldilar. Axmad YAssaviy o'z hikmatlaridan birida shunday deydi:

Nafs yo'liga kirgan kishi rasvo bo'lur,
Yo'ldan ozib, toyib, to'zub gumrox bo'lur.
YO'tsa-tursa shayton bilan hamrox bolur...

U nafs bandalariga qarata "nafsingni tiygil ey batkirdor" deb murojat etadilar.

4. IX-XII ASRLARDA ME'MORCHILIK VA SAN'AT.

IX-XII asrlarda o'lkada markazlashgan yirik davlatlarning shakllanishi va ularning rivoji, davlatchilikning mustahkamlanishi, ma'naviy hayot, ilm-fanning rivojlanishigagina emas, balki moddiy madaniyatning ham rivojlanishiga asos bo'ldi. Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, Urgan va Marv kabi shaharlarda saroylar, masjid, madrasalar, minoralar, maqbaralar, tim va karvonsaroylar ko'plab qurila boshladi.

Bu davr O'rta Osiyo me'morchiligida ijtimoiy sharoitdan kelib chiqib, qurilish materiali sifatida paxsa, xom g'isht va pishiq g'isht hamda bog'lovchi element sifatida ganchdan foydalanish keng yo'lga qo'yilgan edi. Bu vaqtda sinch qadab quriladigan uy-joylar va umum ahamiyatga ega bo'lgan binolar, saroylar, masjidlar, madrasalar qurilishida yog'och ham muhim o'rin egallar edi.

X asrlarga kelib binokorlikda qurilish tartibi ham o'zgara boshladi. Mahobatli qurilishda tomi gumbaz bilan yopilgan kub shaklidagi binolar muhim ahamiyatga ega bo'la boshladi. Buxoroda qurilgan Ismoil Somoniy qabri ustiga

pishiq g'isht bilan qurilgan go'zal maqbara fikrimizga misol bo'la oladi. Bu bino to'rtburchak shaklida bo'lib, tomi gumbaz qilib yopilgan. To'rtburchakdan nayzali ravotlar yordami bilan sakkiz qirrali shaklga o'tilgan. SHu bilan birga bu bino to'rt fasadlidir. Uning to'rttala tomoni ham bir xil, old tomonidek bezatilgan. Oddiy qilib aytganda, binoning oldi, yoni va orqa tomoni yo'q. Hamma tomoni bir xilda bezatilgan. Ismoil Somoniy maqbarasini qurishda va bezatishda arablardagi o'sha davr uchun xos bo'lgan me'moriy xususiyatlardan ham ko'p foydalanilgan. Masalan, binoning tashqi burchaklariga ustunlar o'rnatish. Bino ichidagi bunday shakldagi, shuningdek, dumaloq manzarali maydonlar ham islomgacha bo'lgan yodgorliklarda uchraydi.

IX-X asr me'morchiligi uslublarini saqlanib qolganligini ko'plab masjidlar misolida ham kuzatish mumkin. YOzma manbalarda qayd qilinishicha, somoniylar davridagi ko'pgina masjidlar o'z vaqtida arablargacha bo'lgan ibodatxonalarning masjidga moslashtirish asosida qurilgan. Ular bir xonali bo'lib, masjidning tomlari ustunga tayanib turgan. Masjidlarning tomi odatda gumbaz shaklida bo'lgan. Masjidlarda, ayniqsa, mehroblari shaklli, yozuvli qilib qirgilgan g'ishtar, o'yma ganchlar va hatto tilla suvlar bilan bezatilgan. Bu davrga oid masjidlar to'g'risida so'z yuritilganda, Buxorodagi Mag'oki Attoron, Poykand masjidi, Termizdagi CHorustun, SHahristondagi CHilduxtaron masjidlarini qayd qilish mumkin. Bu yodgorliklar O'rta Osiyoda diniy me'morchilikning rivojlanish yo'llarini kuzatish imkoniyatini berdi.

Narshaxiyning yozishicha, amir Nasr ibn Ahmad Buxoro Registonida o'zi uchun katta saroy qurdirgan va uning qurilishiga katta mablag' sarflagan. Bu saroy g'oyat go'zal bo'lgan. Saroyning oldida esa devonlar uchun binolar qurilgan. Amir va hokimlar saroyi Nishopur, Marvda, Samarqand va boshqa shaharlarda ham bo'lgan. Bu saroylar o'zlarining kattaligi va go'zalligi bilan ajralib turgan. Ko'p hollarda bunday saroylar xushmanzara joylarda, bog'lar ichida bunyod etilgan.

Saroylarning go'zalligini Termiz shahridagi saroy misolida ko'rish mumkin. Bu saroy to'liq ochib o'rganilgan. Saroy shahar mudofaa devorlaridan tashqarida, bog'lar orasida joylashgan va 10 gektaga yaqin maydonni ishg'ol etgan. Saroy mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Saroy o'zining mahobatligi, serhashamligi va bag'oyat go'zal, nafis bezaklari bilan odamni o'ziga jalb qiladi.

Somoniy davriga oid shahar va qishloq aholisining uylari to'g'risida hozir arxeologiya ancha ma'lumotlarga ega. Bu borada qadimiy Samarqand-Afrosiyob, Xorashkent-Kanka, Binkent, Termiz, Marv, Dehiston kabi o'nlab yodgorliklarda olib borilgan izlanishlarning natijasi diqqatga molikdir. Afrosiyobda bu davrga oid katta bir mahalla ochib o'rganilgan.

Somoniy davrida me'morchilik o'z taraqqiyotida katta yutuqlarni qo'lga kiritgan. O'rta Osiyo me'morlari bu davrda shunday noyob binolar, san'at durdonalarini bunyod etganlarki, ular asrlar osha odamlarni hayratga solib kelmoqda.

Qoraxoniylar O'rta Osiyoni bosib olgandan so'ng bu yerdagi madaniy hayotda ham katta o'zgarishlar ro'y berdi. SHaharlar taraqqiy etdi, hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlandi. SHaharlar rivojlanishi bilan shahar

aholisi soni ham ko'payib bordi. Somoniylar davridayoq yirik shaharlar bo'lgan Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv, Qoraxoniylar davrida yanada kengaydi. Bu shaharlar endi uch qismli-ark, shahriston, rabotdan iborat edi. Ularda yangidan yangi hashamatli imoratlar paydo bo'lib, bu imoratlar o'z tuzilishi va naqshlari bilan ajralib turardi.

Qoraxoniylar hukmdori SHams-ul-Mulk Buxoro yaqinida saroy barpo etdi va bundan tashqari Hazara qishlog'i yaqinida Dingaron masjidini va uning yonida Barot-i-Malik nomi bilan mashhur bo'lgan karvonsaroy qurdiradi. Buxoro shahrida 1127-yilda Qoraxoniylar Arslonxon tomonidan mashhur imorat-Minorayi Kalon barpo etildi. Vobkentda XII asrning oxirida Buxoro sadri Abdulaziz II tomonidan qurilgan minorani, Jarqo'rg'onda (Surxondaryo viloyati) Qoraxoniylar tomonidan 1108-1109-yillarda barpo etgan minorani, shuningdek, Buxorodagi Nomozgohni va Attoriy masjidini alohida ta'kidlab o'tish mumkin.

Qoraxoniylar davrida Samarqand shahrida ham ko'plab binolar barpo etildi. Afrosiyobdagi arxeologik qazilmalar shundan dalolat berib turibdi. Lekin mo'g'ullar istilosidan so'ng bu binolar vayronaga aylandi.

Termiz shahri XI-XII asrlarda ancha rivojlandi, yangi mustahkam mudofaa devori qurildi, bu yerda barpo etilgan Termiz hukmdorlari saroyi ayniqsa mashhurdir. Bu saroyi qazib ochgan arxeologlar turli idishlar bilan birga afsonaviy hayvonlar tasvirini ham topishdi. XI-XII asr boshlarida Xorazmda ham ko'pgina binolar qad ko'tardi, jumladan, Urganchdagi Faxriddin Roziy va SHayx SHarif maqbarasini, ko'plab karvon saroylarni, Buronqal'a, Naifqal'a va boshqalarni aytib o'tish mumkin.

Biz o'rganayotgan davrda me'morchilikdan tashqari bir necha suv inshootlarini qurish va unda yo'nilgan tosh, pishiq g'isht, suvga chidamli qurilish qorishmalaridan-bandlar, novlar, ko'priklar, sardobalar va korizlar qurilgan. Bu inshootlar mamlakatda fan va ishlab chiqarishni g'oyatda rivojlanganligidan dalolat beradi. 1,5 mln. m.kub suvni to'plash imkoniyatiga ega bo'lgan Xonbandi nomli suv omborining qurilishi fikrimizning dalili bo'lib xizmat qiladi. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, bunday suv inshootlarini qurish uchun suvning vertikal va gorizontal bosim kuchlarini hisoblab chiqish va tog'da qurilganligi uchun tez-tez yerning qimirlab turish kuchlarini ham matematik yo'llar bilan hisoblab chiqish lozim bo'lgan va bu ish muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.

Bu davr me'morchiligi bilan bir qatorda unga bog'liq bo'lgan naqqoshlik va tasviriy san'at ham jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Imoratlarni o'ymakor ustunlar va to'sinlar, devorlarni esa bo'yoqli, ganchkor naqshlar bilan bezash keng rasm bo'la boshladi. Sekin-asta naqqoshlik san'atida ham ilgarigidek, odamlar va hayvonlarni tasvirlangandan ko'ra murakkab geometrik va gulli naqshlarga o'tila boshlandi.

Naqqoshlik san'ati qadimgi Termizda juda rivojlangan edi. Bu borada Hakim Termiziy maqbarasi davridan saqlanib qolgan o'yma naqsh parcha ayniqsa qimmatlidir. Unda Samarqand usulini eslatuvchi sebarcha shaklidagi o'ziga xos uslublar mavjuddir. Bu davrda hattotlik san'ati kitoblarni ko'chirishdagina emas, balki binolarni bezashda ham keng qo'llanila boshlandi.

IX-XII asrlarda madaniy hayotning yana bir tarkibiy qismini tashkil etuvchi musiqa san'ati ham rivojlandi. Albatta, markazlashgan yirik davlatlarda iqtisod, xalqlarning turmush-tarzi yaxshilana borgani sari ilm-fan, me'morchilik, tasviriy san'at bilan birga musiqa ham rivojlana boshlaydi. Albatta, har yerdagidek bu yerda ham bayramlar, to'ylar, xalq sayillari musiqa va qo'shiqlarsiz o'tmagan. Bu haqda Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'ati turk" asarida keltirilgan ma'lumotlar diqqatga sazovordir. Bu davrda quyidagi musiqa asboblari bo'lgan: ud, tanbur, qubuz, rubob, nay, surnay, karnay, qushnay kabi g'oyat xilma-xil torli, zaburli va puflab chalinadigan cholg'u asboblardan keng foydalanilgan. Bu davrda hatto yangi sozlar ixtiro etilgan. Masalan, Rudakiyning zamondoshi Abu Xifz Sug'diy nayga monand shohrud nomli torli asbob yaratgan edi. Manbalarda Abu Bakr Rubobiy, Bunasr, Buamir, changchi Lo'kariy kabi sozanda hamda hofizlarning nomlari saqlanib qolgan. Rudakiy rud va tanbur kabi sozlarni yaxshigina chaladigan sozanda va xushovoz hofiz bo'lgan. Uning mashhur «Buyi jo'yi Mo'liyon» she'ri ushshoq kuyida aytilib, nihoyatda shuhrat qozongan. Ana shu davr kuylari, qo'shiqlari xalqimizning klassik kuyi "SHoshmaqom" va boshqalar uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Bu davrda she'riyatni g'oyatda taraqqiy etganligini qayd qilgan edik. She'riyat doimo musiqa bilan, o'z navbatida musiqa musiqashunoslik fani bilan uzviy ravishda bog'liq holda rivojlanadi. O'sha davrning buyuk allomalaridan Al-Forobiy, Abu Ali ibn Sinolar musiqa va musiqashunoslikka katta e'tibor berdilar va o'zlarining nodir asarlarini yaratdilar.

Biz ajdodlarimiz qoldirgan buyuk merosni IX-XII asrlarda mamlakatimiz hududida yuz bergan chuqur ijobiy o'zgarishlar, ilm-fan, madaniyatning rivojlanishini o'rganar ekanmiz, ularning yaratilishida o'zlarining buyuk hissalarini qo'shgan buyuk allomalar, olimu fuzalolarining jahon sivilizasiyasi rivojlanishiga qo'shgan ulushlarini alohida ta'kidlaymiz. Jahon madaniyati rivojida ularning o'rinlarini aniqlab olishimiz va ko'rsatishimiz vaqti keldi. Ularning hammasi mustaqil O'zbekistonda yosh avlodni milliy g'oya, milliy mafkura, Vatanga muhabbat, sadoqat, g'urur ruhida tarbiyalashda katta rol o'ynaydi.

Ko'rinadiki, IX-XII asarlarda Markaziy Osiyoda madaniy taraqqiyotning barcha sohalarida yuqori darajada rivojlanish yuz bergan. Bu jarayonni esa «uyg'onish» renessans deyishga asos bor. Uning muhim xislati insonparvarlik bo'lgan va markazida doimo inson, insoniy aql, his-tuyg'u, inson ma'naviy boyligini egallash, uni yuksaltirish masalalari turgan. Tarixiy sharoitning va davrning bu chaqirig'iga vatandosh donishmandlarimiz va mutafakkirlarimiz talab darajasida javob bera olganlar.

Xulosa shuki, uyg'onish madaniyati, birinchi navbatda feodal munosabatlarning tez rivojlanishi, yerli mustaqil davlatlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq. U yangi davr ehtiyojlari asosida shakllandi. Yana uyg'onish madaniyati shahar madaniyatining yuksalishi, shaharning jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy rolining kuchayib borishi bilan bog'liqligini ham e'tibordan chetga qoldirmasligimiz lozim.

NAZORAT SAVOLLARI.

1. IX-XII asrlarda Mavrounnaxrda moddiy va manaviy madaniyatning yuksalishini ta'minlagan shart-sharoitlar.
2. IX-XII asrlarda ilm-fan ravnaqi.
3. Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Farobiy, Narshaxiy, Ibn Sino, Beruniy va boshqa buyuk ajdodlarimizning ijodi.
4. IX-XII asrlarda islom dinining davlat tayanchiga aylanishi.
5. Sufiylik tariqatlari. YUusuf Hamadoniy, G'ijdivoniy, Ahmad YAssaviy, Najmiddin Kubro.
6. IX-XII asrlarda turkiy va forsiy adabiyot ravnaqi.
7. Ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy va madaniy merosning jahon fani va madaniyatida tutgan urni.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI.

1. Markaziy Osiyoda IX-XII asrlarda yashagan buyuk allomalar.
2. Ibn Sino–Buyuk hakim va ensiklopedist olim.
3. Ismoil Buxoriy–hadis ilmining sultoni.
4. Xorazimdagi Mamun akademiyasi–Markaziy Osiyoda fan va madaniyatni rivojlantirishda muhim oliygoh.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov.I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., SHarq, 1998.
2. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T., Ma'naviyat, 2008.
3. Karimov.I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga hizmat etsin. T., O'zbekiston, 1998.
4. Abdunabiyev.A.G. Vklad meravoy sivilizasiyu. T., O'zbekiston, 1994.
5. Abulqosim Firdafsiy. SHoxnoma. T., G'.G'ulom, 1984.
6. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shaxri. T., 1993.
7. Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar 1-jild. T., Fan, 1968.
8. Axmedov.B. Tarixdan saboqlar. T., O'qituvchi. 1994.
9. Buyuk siymolar, allomalar. T., Meros. 1995, 1996, 1998.





